

## O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES SUB'EKTLARINI BANKLAR TOMONIDAN MOLIYALASHTIRISHNING SAMARADORLIGINI BAHOLASH

**Eshonqulov Jamshid Mannonovich**

*Biznesni rivojlantirish banki xodimi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada yurtimizda kichik biznes sub'ektlarini banklar tomonidan moliyalashtirish hamda, uning samaradorligi haqida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** *Iqtisodiyot, taraqqiyot, tadbirkorlik, moliya, kichik biznes, Jahin banki, kreditlash.*

Bugungi kunda mamalakatlar iqtisodiyoti taraqqiyotining eng muhim yo'nalishlaridan biri sifatida kichik biznesni rivojlantirish masalalari e'tirof etilmoqda. Kichik biznesni jahon andozalariga mos ravishda tashkil etish va rivojlantirish bevosita investision omillar bilan bog'liq jarayon hisoblanadi. Shu ma'noda kichik biznesni samarali investisiyalash O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishini belgilab beruvchi muhim kuchga aylanadi

Har qanday mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishining darajasi ayni shu mamlakatda tadbirkorlik qay darajada taraqqiy etganligidan dalolat berib turadi. Sir emaski, iqtisodiyotning jadal sur'atlar bilan rivojlanishi uning tarkibidagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari ulushining ko'payib borishi bilan belgilanadi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushining kun sayin ko'payib borishi esa, o'z navbatida, mamlakatda yaratilgan ishbilarmonlik muhitiga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. Bugungi kunda mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 53,3 foizni tashkil etmoqda. Xalqaro amaliyotda yirik moliya muassasasi hisoblangan Jahon banki tomonidan kichik va o'rta biznes sub'ektlarini kreditlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan ishlar ko'lam yildan –yilga ko'payib bormoqda. Ushbu ishlar natijasida jahon amaliyotida, kichik va o'rta biznes sub'ektlarini kreditlash mexanizmlarini takomillashtirish, kreditlardan samarali foydalanish bilan bog'liq jihatlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Lekin, shunga qaramasdan banklar tomonidan kichik biznes sub'ektlariga xizmat ko'rsatish madaniyati va bank tizimiga bo'lgan ishonchini yanada oshirishda bir qator muammo va kamchiliklar kuzatilmoqda. Xususan, kreditlarni ajratish bo'yicha qarorlar qabul qilishda vakolatlarning haddan tashqari markazlashganligi bosh banklar va ularning filiallari o'rtasidagi javobgarlikning aniq chegaralanishiga to'sqinlik qilayotganligi, kredit buyurtmalarini ko'rib chiqishning murakkablashgan mexanizmlari kreditlarni tezkor olish imkoniyatini chegaralayotganligi, kichik biznesni kreditlashning dolzarb muammolari yuzasidan izlanishlar olib borish, xalqaro tajribani o'rganish va uni respublika bank xizmatlari bozorida qo'llash yuzasidan takliflar ishlab chiqish muhim omil hisoblanadi.

Bu borada investisiyalarning o'rnini beqiyosdir, xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanayotganligi, barqaror iqtisodiy o'sish va mahalliy hamda xorijiy investisiyalar hajmi yildan-yilga oshib borishi real sektordagi investision jarayonlarni

faollashtiradi. Investision jozibadorlikni oshirish yo‘li orqali iqtisodiy rivojlanishga erishish mumkin. Shu jumladan, Prezidentning O‘zbekiston Respublikasining 2020–2022 yillarga mo‘ljallangan Investisiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi qarori qabul qilindi. Qarorga asosan: - O‘zbekiston Respublikasining 2020–2022 yillarga mo‘ljallangan Investisiya dasturida;

- 2020 yilda yirik ishlab chiqarish ob‘ektlari va quvvatlarini ishga tushirish manzilli dasturi;

- 2020 yilda investisiya va kreditlarni o‘zlashtirish bo‘yicha yig‘ma manzilli dastur hamda choraklar kesimida ijrosi bo‘yicha prognoz ko‘rsatkichlar;

- 2020 yilda O‘zbekiston Respublikasi davlat kafolati ostida xorijiy kreditlar jalb qilgan holda amalga oshiriladigan investisiya loyihalarining manzilli dasturi tasdiqlandi.

Kichik biznes davlatning bozor va xo‘jalik yurituvchi tizimlarining hayotiy asosi bo‘lib xizmat qilib, bozor munosabatlarining asosiy shartlaridan biri bo‘lgan, talab va taklifdagi manfaatlar muvozanatini inobatga oladigan ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish kabi birlamchi ijtimoiy-iqtisodiy funksiyani o‘z ichiga oladi. Davlat tomonidan kichik biznes korxonalarining investision jozibadorligini oshirish uchun kerakli choralarning ko‘rilishi, kichik biznesga kredit ajratishni oshirishga va kichik biznes korxonalarining kreditlardan to‘la foydalana olishiga yo‘l ochib beradi.

Kichik biznesning investision jozibadorligini oshirish, kredit va moliya institutlarini rivojlantirish, xorijiy va mahalliy investisiyalar hajmini ko‘paytirish hamda davlat dasturlarini ishlab chiqqan holda kichik biznesga mablag‘ ajratish hozirgi kunning asosiy vazifalaridan biridir. Mamlakatimizda kichik biznesga investisiyalarni keng jalb etish va ularning jozibadorligini oshirish, hamkorlikdagi istiqbolli loyihalarni amalga oshirish, yangi zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etish asosida mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini jahon bozorlari talabi darajasiga ko‘tarishga imkoniyat yaratmoqda. Biroq mamlakatimizda investisiya faoliyatini moliyalashtirish usullarini takomillashtirish, shu bilan bir qatorda, ularni moliyalashtirish manbalarini optimallashtirish va investisiya bozori infratuzilmasini shakllantirishda hali o‘z yechimini to‘liq topmagan muammolar mavjud.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub‘ektlarini banklar tomonidan kreditlar asosida moliyaviy qo‘llab quvvatlash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarni asosiy yo‘nalishlaridan biri etib belgilangan. 2017- 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub‘ektlarini kreditlashni yanada kengaytirish” vazifasi belgilab berilgan. Xususan, banklar tomonidan kichik biznes sub‘ektlari faoliyatini kreditlash samaradorligini tavsiflovchi mezonlar banklarning kredit siyosatida o‘z ifodasini topmaganligi, iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda kichik va o‘rta biznesni kreditlash borasida katta amaliy va boy tajriba to‘planganligini, ushbu ilg‘or xorij tajribalarini o‘rganish, umumlashtirish va undan O‘zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlarini ilmiy jihatdan asoslab berish respublikamiz uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha O‘zbekistonda olib borilayotgan siyosat kichik tadbirkorlikni rivojlanishiga, ushbu sohada haqiqiy mulkdorlar sinfini shakllanishiga

zamin yaratdi. Jamiyatda barqarorlikni mustahkamlashda hamda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarda erishilgan yutuqlar ushbu jarayonlarning rivojlanishiga bevosita bog'liqdir. Kichik biznesning innovatsion faoliyatini qo'llab-quvvatlash jarayonlari asosan quyidagi 3 ta yo'nalishni o'z ichiga oladi:

1. Kichik biznes sub'ektlarining innovatsion faoliyati uchun etarlicha ishbilarmonlik shart-sharoitlarini va muhitini yaratish.
2. Tadbirkorlik sub'ektlarining innovatsion faoliyatini bevosita rag'batlantirish.
3. Kichik biznes sub'ektlarining innovatsion faoliyatini o'z vaqtida to'g'ri moliyalashtirish.

Hozirgi kunda, mamlakatimizda biznesni boshlashga imkon yaratuvchi, ro'yxatga olish va undan keyingi jarayonlar soddalashtirildi, yanada engillashtirildi. Ro'yxatga olishning xabardor qilish tartibi joriy etildi. Tadbirkorlikni kreditlashning ko'plab ilg'or shakllarini joriy etishga sharoit yaratildi. Birja savdolarini rivojlanishi bilan tadbirkorlikni moddiy-texnik resurslarini erkin sotib olishga qulay sharoit yaratildi va bu sohaga bog'liq bo'lgan ko'pgina muammolar o'z echimini topdi.

So'nggi yillarda respublikamizda ishbilarmonlik muhitini tubdan yaxshilash va tadbirkorlikka yanada keng erkinlik berish yuzasidan bir qator chora-tadbirlar belgilanmoqda. Xususan, bank tizimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari uchun ko'rsatilayotgan bank xizmatlari, ularni moliyaviy qo'llab-quvvatlash, kreditlash hajmini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bunda asosiy e'tibor, kichik tadbirkorlik sub'ektlariga investitsiya maqsadlari, boshlang'ich kapitalni shakllantirishga uzoq muddatli kreditlar ajratish hamda mikrokreditlashni kengaytirish orqali kichik biznesning iqtisodiyotda tutgan o'rnini oshirish, yangi ishchi o'rinlari tashkil etishga qaratildi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning jadal rivojlanishi va ularga yaratib berilayotgan sharoitlarni e'tiborga olgan holda Markaziy bank tomonidan "Tijorat banklari tomonidan fermer xo'jaliklarini, shuningdek, kichik biznes sub'ektlarini milliy valyutada kreditlash" Tartibi (ro'yxat raqami 907, 2000 yil 7 mart) belgilangan tartibtaomillar qayta ko'rib chiqildi.

Tijorat banklari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlariga ajratilgan jami kreditlar 2022 yilda 15870 mlrd. so'mni tashkil qilib, 2021 yilga nisbatan 1,3 barobarga oshgan. Shundan ajratilgan mikrokreditlar o'tgan 2021 yilga nisbatan qariyb 1,3 barobarga oshgan va qariyb 3326 mlrd. so'mni tashkil qilgan. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab - quvvatlashni kengaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi ko'rsatilayotgan moliyaviy xizmatlar, jumladan, ajratilayotgan kreditlar hajminingjadal sur'atlarda oshishida o'z aksini topmoqda. Biznes yuritish jumladan, bank faoliyatini amalga oshirish sharoitlarining yaxshilanishi va joriy etilgan imtiyozlarning ijobiy ta'siri natijasida 2016 yil mobaynida mazkur soha sub'ektlariga barcha moliyalash manbalari hisobidan ajratilgan kreditlar summasi 2021 yildagiga nisbatan 32,3 foizga oshib, 12,1 trln. so'mni tashkil etdi. Hozirgi kunda Respublikamizdagi barcha tijorat banklari o'z kredit va mikrokreditlari bilan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlarini tashkil etish va ular faoliyatini yanada kengaytirishga o'z hissalarini qo'shib kelmoqdalar. Jumladan ATIB "Ipoteka bank" tomonidan 2022-yil davomida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

subyektlariga ajratilgan mikrokreditlarning eng katta salmog'i aylanma mablag'larni to'ldirish uchun ajratilgan bo'lib, miqdori 122 mlrd. so'mga teng. Undan keyingi o'rinlarda qurilish va xizmat ko'rsatish hamda sanoat sohalariga ajratilgan kreditlar egallagan. ATB "Mikrokreditbank" misolida ko'radigan bo'lsak, kichik biznes va xususiy biznes sub'yektlariga ajratilgan jami kreditlar va mikrokreditlar nisbati quyida o'z aksini topgan: Mikrokredit qarz oluvchiga kredit ajratilayotgan loyihaning o'zini-o'zi qoplashi hisobga olingan holda aylanma mablag'larni to'ldirishga, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishni tashkil etish uchun aylanma mablag'larni to'ldirishga beriladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining 2020–2022 yillarga mo'ljallangan Investisiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari <http://lex.uz/m/acts/4689640>

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги «2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида»ги ПФ-60-сон Фармони. <https://lex.uz/docs/5841063>

3. Олтаев, Ш. С. (2020). ЎЗБЕКИСТОН ИҚТИСОДИЁТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ХОРИЖИЙ ИНВЕСТИЦИЯЛАРНИНГ ЎРНИ. Интернаука, (44-3), 57-58.

4. Amriddinovich B. A. Features of api services in the implementation of transformational processes in the activities of commercial banks //World Economics and Finance Bulletin. – 2022. – Т. 7. – С. 27-31.

5. Ziyadullayevich X. H. Analysis of Financial Stability of Commercial Banks and Influenced Factors //Miasto Przyszłości. – 2022. – Т. 29. – С. 239-241.

6. Каримова А. Совершенствование банковского кредитования инновационного развития предприятий сферы туризма //Экономика и образование. – 2021. – №. 4. – С. 59-65.

7. Shernayev A.A, Qalandarov Z.I. Sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirishda mahalliy byudjetlarning rolini oshirish masalalari «Интернаука»: научный журнал - №2 20(196). Часть 7. Москва, изд. «Интернаука», 2022. - с. 58-60